

**LEGAL**  
SCIENCES.UZ

**YURIDIK FANLARNING  
DOLZARB MASALALARI**

2-JILD | 1-SON

**2026**

**LEGALSCIENCES.UZ**

**YURIDIK FANLARNING DOLZARB MASALARI**

**АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК**

**TOPICAL ISSUES OF LEGAL SCIENCES**

*2-jild 1-son 2026-yil*

**TOSHKENT-2026**

**BOSH MUHARRIR:**

Amirov Zafar Aktamovich — yuridik fanlar doktori

**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**

Yuridik fanlar doktori, professor  
ORCID: 0000-0003-1721-0189

**Imomov Nurillo Fayzullayevich**

Yuridik fanlar doktori, professor  
E-mail: nurillo\_1212@mail.ru

**Hakimov Komil Baxtiyarovich**

Yuridik fanlar doktori, professor  
E-mail: professorkomilkhakimov@gmail.com

**Matkarimov Kudrat Kalandarovich**

Yuridik fanlar doktori, dotsent  
Email: qudrat1979uzb@gmail.com

**Umarxanova Dildora Sharipxanovna**

Yuridik fanlar doktori, professor  
ORCID: 0000-0002-3492-010X

**Fazilov Farhod Maratovich**

Yuridik fanlar doktori (DSc), professor  
ORCID: 0000-0001-8603-1948

**Kadirova Moxigul Xamitovna**

Yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent  
ORCID: 0000-0003-1450-7542

**Pirmatov Otabek Shavkatovich**

Yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent  
ORCID: 0000-0002-0774-661X

**Xudaykulov Feruzbek Xurramovich**

Yuridik fanlar doktori, professor  
ORCID: 0000-0002-4940-3762

**Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich**

Yuridik fanlar doktori, professor  
ORCID: 0000-0003-0947-6163

**Boymurodov Botir Panji o'g'li**

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD).  
ORCID: 0009-0003-7377-3995

**Tojiboyev Akbar Zafar o'g'li**

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD). Dotsent.  
ORCID: 0000-0002-9873-6061

**Nodirov Muzaffar Axmad o'g'li**

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD).  
ORCID: 0000-0003-3733-2554

**Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li**

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD).  
ORCID: 0000-0002-9867-3363

**“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

YURIDIK FANLARNING  
DOLZARB MASALALARI  
2-jild, 1-son (fevral, 2026). - 42 bet.

## MUNDARIJA

<i>Turdiyev Bexruz</i> HUQUQIY NIGILIZM FENOMENI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....	5-8
<i>Ergashev Ikrom</i> SOLIQA OID MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR VA ULARNI SODIR ETGANLIK UCHUN JAVOGBARLIK .....	9-17
<i>Rahmatov Elyor</i> BOJXONA NAZORATINI PROTSESSUAL SHAKLDA TASHKIL ETISHDA BOJXONA ORGANLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI .....	18-24
<i>Hakimov Komil</i> IJTIMOIY XAVFLI QILMISHNI SODIR ETGAN SHAXSNI USHLASH VAQTIDA ZARAR YETKAZISHGA DOIR AYRIM MASALALAR .....	25-29
<i>Niyozova Salomat</i> KORRUPSIYAVIY JINOYATLARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN KRIMINOLOGIK CHORA-TADBIRLAR VA MEXANIZMLAR .....	30-36
<i>Nodirov Muzaffar</i> JINOYAT SUDLOVI TIZIMIDA YUVENAL YUSTITSIYA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	37-41

*Article / Original Paper*

## **BOJXONA NAZORATINI PROTSESSUAL SHAKLDA TASHKIL ETISHDA BOJXONA ORGANLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI**

**Rahmatov Elyor Jumaboyevich**

Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida dotsenti

[E-mail: elyorrakhmatov8@gmail.com](mailto:elyorrakhmatov8@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida bojxona sohasidagi islohotlar natijasida mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotining yanada takomillashuvi hamda bojxona sohasida yangi tizim yo'lga qo'yilganligi, bu tizim bojxona organlari faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini oshirishi, fuqarolarning bojxona sohasidagi huquqiy manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qilishi mazmun-mohiyati huquqiy normalar asosida tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** bojxona, bojxona organlari, bojxona nazorati, protsessual kafolatlar, bojxona nazorati subyektlari.

## **SPECIFIC FEATURES OF THE EXERCISE OF RIGHTS AND OBLIGATIONS OF CUSTOMS AUTHORITIES IN ORGANIZING CUSTOMS CONTROL IN A PROCEDURAL FORM**

**Rakhmatov Elyor Jumaboyevich**

Associate Professor of the Department  
of Administrative and Financial Law  
at Tashkent State University of Law

**Annotation.** This article analyzes, on the basis of legal norms, the essence and significance of reforms carried out in the customs sphere of the Republic of Uzbekistan, aimed at further improving the country's economic development and introducing a new system in customs administration. It substantiates that this system enhances the transparency and accountability of customs authorities and serves to ensure the effective protection of citizens' rights and legitimate interests in the field of customs regulation.

**Key words:** customs, customs authorities, customs control, procedural guarantees, subjects of customs control.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi, tashqi savdo aylanmasining kengayishi va xalqaro logistika zanjirlarining murakkablashuvi sharoitida bojxona nazoratini samarali va huquqiy kafolatlar asosida tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bojxona nazoratini faqat ma'muriy-funksional jarayon sifatida emas, balki aniq belgilangan protsessual shakl va tartib asosida amalga oshirish uning qonuniyligi, shaffofligi hamda ishtirokchi subyektlarning huquq va majburiyatlari muvozanatini ta'minlash nuqtai nazaridan muhimdir.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda bojxona sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, bojxona sohasini boshqarish faoliyatini takomillashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini joriy etish, xavflarni boshqarish tizimini rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu islohotlar milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish, shu

jumladan bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va shaffoflashtirish orqali iqtisodiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Bojxona nazoratining protsessual shaklda tashkil etilishi, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi normalarida mustahkamlangan huquqiy asoslarga tayanadi. Ushbu kodeksda bojxona organlarining vakolatlari, nazorat shakllari, tekshiruv o'tkazish tartibi, protsessual harakatlarni rasmiylashtirish, ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgan. Protsessual shaklning mavjudligi bojxona organlari faoliyatini ixtiyoriylikdan himoya qiladi, qarorlar qabul qilishda qonuniylik va asoslilik prinsiplarini ta'minlaydi hamda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Mazkur mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki, bojxona organlarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirish xususiyatlari faqat vakolat doirasi bilan cheklanib qolmaydi, balki ularni amalga oshirish tartibi, protsessual kafolatlar, protsessual muddatlar, dalillarni baholash mezonlari va qarorlar ustidan shikoyat qilish mexanizmlari bilan uzviy bog'liqdir. Demak, bojxona nazoratini protsessual jihatdan tahlil qilish davlat manfaatlarini bilan shaxsiy huquqiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash mexanizmlarini ochib berish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada bojxona nazoratini protsessual shaklda tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari, bojxona organlari huquq va majburiyatlarini amalga oshirishning o'ziga xos jihatlari hamda amaldagi qonunchilik normalarining tatbiq etilish mexanizmi ilmiy tahlil qilinadi. Bu esa bojxona sohasida qonuniylikni mustahkamlash, protsessual kafolatlarni kuchaytirish va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bojxona nazorati protsessual shaklda tashkil etilishi deganda, bojxona organlari va ularga aloqador shaxslar faoliyatining qonun bilan belgilangan muayyan tartib-taomillar doirasida olib borilishi tushuniladi. Ya'ni, bojxona nazorati bo'yicha barcha harakatlar va qarorlar maxsus protsessual qoidalarga binoan amalga oshirilishi lozim. Bu qoidalar bojxona organlari va tashqi savdo ishtirokchilarining huquq hamda majburiyatlarini ro'yobga chiqarish tartibini belgilaydi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, bojxona ma'muriyatchiligi mohiyatan "yuridik va jismoniy shaxslarning bojxona sohasidagi huquq va majburiyatlarini amalga oshirishning protsessual shakllarini ta'minlashga qaratilgan, qonunlar bilan tartibga solinadigan vakolatli davlat organlarining tashkiliy va boshqaruv faoliyati"dir(1). Demak, bojxona nazorati jarayonida ishtirok etuvchi har bir subyekt (organ yoki shaxs) o'z huquqlarini belgilangan tartibda amalga oshirishi, majburiyatlarini esa aniq protsessual me'yorlarga muvofiq bajarishi shart. Bu yondashuv huquqiy davlat tamoyillariga mos bo'lib, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoyalash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligi bojxona nazorati sohasida Bojxona organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, yagonalik, ochiqlik va shaffoflik, jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarini hurmat qilishdan iboratligini belgilaydi(2). Bojxona organlari faoliyatida qonuniylik tamoyili shuni anglatadiki, ular barcha harakatlarini faqat qonun va qonunosti hujjatlariga binoan amalga oshirishi lozim. Ochiqlik va shaffoflik esa bojxona jarayonlarining oshkoraligini ta'minlab, manfaatdor tomonlarga o'z huquqlaridan to'la foydalanish uchun axborot berilishini nazarda tutadi. Jismoniy hamda

yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etish va hurmat qilish bojxona ma'muriyatchiligining asosiy prinsiplaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shu bois, bojxona organlari nazorat faoliyatida subyektlarning huquqlarini buzmaslik, ularning himoyasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Bojxona nazoratining protseduralari ma'muriy huquq subyektiv huquqlarni himoya qilish mexanizmlariga tayanadi. Protsessual kafolatlar deb bojxona nazorati jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning asosiy huquqlarini himoya qiluvchi huquqiy mexanizmlar tushuniladi. O'zbekiston qonunchiligida bojxona ma'muriyatchiligi qonuniyligini ta'minlash uchun prokuror nazorati, idoraviy nazorat va sud nazorati kabi maxsus vositalar belgilangan (3). Masalan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi bojxona organlari faoliyati ustidan qonuniylik nazoratini amalga oshiradi; fuqarolar esa bojxona mansabdor shaxslarining harakatlaridan norozi bo'lsa, belgilangan tartibda yuqori turuvchi bojxona organiga yoki sudga shikoyat kiritish huquqiga ega(4). Qolaversa, bojxona organlari xatti-harakatlari ustidan sud nazorati (ma'muriy sudlar orqali) yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu ham protsessual adolatning muhim kafolatidir.

Bojxona kodeksida nazarda tutilganidek, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzgan holda har qanday tarzda tovarlarni chegaradan o'tkazish g'ayriqonuniy hisoblanadi va ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka olib keladi (5). Ya'ni bojxona nazorati jarayonidagi protsessual tartiblar qat'iy majburiy kuchga ega bo'lib, ularga rioya etmaslik huquqbuzarlik deb baholanadi. Shu qat'iy tartibga solish orqali davlat bojxona nazorati sohasida qonuniylikni ta'minlaydi, barcha ishtirokchilardan belgilangan qoidalarga bo'ysunishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, bojxona nazoratining protsessual shaklda tashkil etilishi – bu nazorat jarayonining huquqiy tartibga solinishi va qat'iy reglamentatsiya qilinishidir. Bunda ishtirokchilarning huquq va burchlari oldindan qonunlarda belgilab qo'yilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi tegishli protseduralar orqali himoyalanaadi. Bu tizim bojxona organlari faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini oshiradi, fuqarolarning bojxona sohasidagi huquqiy manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi. Endi ana shu protsessual shakldagi bojxona nazoratining asosiy subyektlari, ya'ni ishtirokchilari va ularning huquq va majburiyatlarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Bojxona nazorati jarayonida bir-biriga qarama-qarshi bo'lmagan, ammo huquqiy maqomi va funksiyalari jihatidan farqlanuvchi ikki asosiy guruh subyektlar ishtirok etadi: 1) davlat hokimiyati subyektlari – bojxona organlari (mansabdor shaxslar); 2) davlat hokimiyati bo'lmagan subyektlar – tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari (yuridik va jismoniy shaxslar). Birinchi guruh – bu bojxona organlari (jumladan, Davlat bojxona qo'mitasi, uning hududiy bo'linmalari va chegara bojxona postlari) hamda ularning mansabdor xodimlari. Ular davlat nomidan bojxona nazoratini amalga oshiradi va ma'muriy vakolatlarga ega. Ikkinchi guruhga esa bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalarini olib o'tish bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar kiradi. Bular avvalo deklarantlar (tovar egasi yoki uning nomidan bojxonaga murojaat qiluvchi shaxs), tashuvchilar (yuklarni olib o'tayotgan transport vositasi egasi yoki operatori), bojxona brokerlari (deklarant vakili sifatida bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshiruvchi vositachi) hamda bojxona ombori egasi kabi boshqa ishtirokchilar bo'lishi mumkin.

Ushbu subyektlar o'rtasidagi munosabatlar ma'muriy-huquqiy xususiyatga ega va tenglik prinsipiga asoslanmaydi – bojxona organlari davlat vakolatiga ega bo'lganligi sababli

“buyruq-itoat” munosabatlari yuzaga keladi. Biroq bu holat boshqa subyektlarning huquqlarini poymol qilish uchun asos bo‘la olmaydi – aksincha, qonunchilik bunday munosabatlarda fuqaro (yoki tadbirkorlik subyekti)ning qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun zarur kafolatlarni nazarda tutadi. Jumladan, yuqorida ta’kidlanganidek, bojxona organlari zimmasiga jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish vazifasi yuklatilgan bo‘lib, ular murojaatlarni ko‘rib chiqishi va qonunchilik bo‘yicha tushuntirishlar berishi shartligi qat’iy belgilangan.(6)

Quyida bojxona nazoratining asosiy subyektlari – bojxona organlari mansabdor shaxslarining huquq va majburiyatlariga batafsil to‘xtalamiz.

Bojxona organlari – davlat ijro hokimiyatining maxsus vakolatli organlari bo‘lib, ularga bojxona chegarasida va mamlakat bojxona hududida bojxona nazoratini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan. Bojxona organlari xodimlari (mansabdor shaxslar) qonun bilan berilgan vakolatlar doirasida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda ishtirok etadi, bojxona qonunbuzarliklarining oldini olish va aniqlash choralari ko‘radi, bojxona to‘lovlarini undirish va bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish kabi keng funksiyalarni bajaradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi PQ-122-son qarorida bojxona organlarining asosiy vazifa va funksiyalari aniq belgilab berilgan (7). Xususan, bojxona organlari:

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonunchilik bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;

o‘z vakolati doirasida O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash;

bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshirish;

bojxona to‘lovlarini undirish;

bojxona to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonunchilik buzilishlarining, shu jumladan, kontrabandaning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda o‘z vakolatlari doirasida ishtirok etish;

tashqi savdo operatsiyalarining monitoringini amalga oshirish, eksport-import shartnomalarining ijrosini tahlil qilish, shuningdek, tashqi savdo operatsiyalarining bojxona organlariga taalluqli qismini o‘tkazishda valyuta to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etish;

tovarlarning tashqi savdosiga doir bojxona statistikasini yuritish;

tashqi iqtisodiy faoliyatning (keyingi o‘rinlarda — TIF) tovar nomenklaturasini klassifikatsiyalash hamda bojxona va sud ekspertizalarini amalga oshirish;

fuqarolarning bojxona sohasidagi huquqiy madaniyatini yuksaltirish;

xavfni boshqarish tizimi qo‘llanilishi samaradorligining muntazam monitoringini amalga oshirish;

bojxona organlari faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va nazoratning texnik vositalarini qo‘llash;

bojxona ishini rivojlantirish va takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga taalluqli qismidan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash;

TIF ishtirokchilari faoliyatini baholash hamda ularning tovarlar va transport vositalari chiqarib yuborilgandan keyingi hisobini tekshirishni nazarda tutuvchi bojxona auditini amalga oshirish;

notarif tartibga solish hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazorati organlarining TIFni notarif tartibga solish choralarini qo'llash bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;

bojxona organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish hamda fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni ta'minlash;

kinologiya faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, xizmat itlari va kinologlarni tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish.

Shu bilan birgalikda Bojxona organlari o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi sohalarda funksiyalarni bajaradi:

1) jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonunchilik bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish sohasida:

2) O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash sohasida:

3) bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshirish sohasida:

4) bojxona to'lovlarini undirish sohasida:

5) bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonunchilik buzilishlari, shu jumladan, kontrabandaning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish sohasida:

6) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda o'z vakolatlari doirasida ishtirok etish sohasida:

7) tashqi savdo operatsiyalarining monitoringini amalga oshirish, eksport-import shartnomalarining ijrosini tahlil qilish, shuningdek, tashqi savdo operatsiyalarining bojxona organlariga taalluqli qismini o'tkazishda valyuta to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash sohasida:

8) tovarlarning tashqi savdosiga doir bojxona statistikasini yuritish sohasida:

9) TIF tovar nomenklaturasini klassifikatsiyalash hamda bojxona va sud ekspertizalarini amalga oshirish sohasida:

10) fuqarolarning bojxona sohasidagi huquqiy madaniyatini yuksaltirish sohasida:

11) xavfni boshqarish tizimi qo'llanilishi samaradorligining muntazam monitoringini amalga oshirish sohasida:

12) bojxona organlari faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va nazorat-texnik vositalarini qo'llash sohasida:

13) bojxona ishini rivojlantirish va takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish sohasida:

14) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga taalluqli qismidan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash sohasida:

15) TIF ishtirokchisi faoliyatini baholash hamda ularning tovarlar va transport vositalari chiqarib yuborilgandan keyingi hisobini tekshirishni nazarda tutuvchi bojxona auditini amalga oshirish sohasida:

16) notarif tartibga solish hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazorati organlarining TIFni notarif tartibga solish choralari qo'llash bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish yo'nalishida:

17) bojxona organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish hamda fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni ta'minlash sohasida:

18) kinologiya faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, xizmat itlari va kinologlarni tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish sohasida.

Shu bilan birgalikda Davlat bojxona xizmatiga qonunchilik hujjatlari bilan boshqa funksiyalar ham yuklanishi mumkin. (8)

Bojxona xodimlarining bojxona nazorati sohasidagi huquqlari Bojxona kodeksining turli moddalarida nazarda tutilgan. Jumladan, kodeksning 184-moddasiga muvofiq, bojxona organi nazoratni amalga oshirish uchun kerakli hujjatlar va ma'lumotlarni mas'ul shaxslardan talab qilib olish huquqiga ega (9). Shuningdek, 185-modda bojxona xodimlarining nazorat ostidagi tovarlar saqlanadigan joylarga kirishini ta'minlash haqida, 186-modda esa nazorat uchun zarur bo'lgan yuk operatsiyalarini amalga oshirish vakolati haqida so'z yuritadi. Shu asosda bojxona xodimlari, masalan, bojxona omborlari va vaqtinchalik saqlash omborlariga kirishi, u yerdagi tovarlarning holatini tekshirishi mumkin. Bojxona xodimlari bojxona nazorati davomida quyidagi huquqlarga egadir:

Hujjatlarni va ma'lumotlarni tekshirish – ular eksport-importga oid barcha hujjatlarni talab qilib, ularning haqqoniyligini tekshirishi mumkin;

Og'zaki so'rov o'tkazish – zarur hollarda mas'ul shaxslardan yoki guvohlardan og'zaki izohlar va tushuntirishlar olish huquqi;

Tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirish va ko'rikdan o'tkazish – bojxona inspeksiyasi (ko'zdan kechirish) yoki bojxona ko'rigi, shuningdek jismoniy shaxslarning shaxsiy ko'rigi kabi shakllarni qo'llash huquqi;

Bojxona identifikatsiyasi va kuzatuv – yuklarga plombalar yoki boshqa identifikatsiya vositalarini qo'yish, ularni kuzatuv ostida olib borish huquqi;

Bino va hududlarni tekshirish – bojxona chegarasi yaqinida yoki bojxona nazorati zonalarida joylashgan binolarni ko'zdan kechirish vakolati;

Hisobga olish va inventarizatsiya – nazorat ostidagi tovarlarning hisobini tekshirish, inventarizatsiya qilish, taqdirda ularni sanab chiqish huquqi.

Bojxona organlari mansabdor shaxslarining majburiyatlari ham qonunchilikda aniq belgilangan. Asosiy majburiyat – bu qonuniylik va odilona yondashuvni ta'minlashdir. Xususan, yuqorida qayd etilgan Prezident qarorida bojxona organlari “jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlashi” shartligi alohida urg'ulangan. (10) Bu degani, har bir bojxona xodimi nazorat chog'ida fuqaro huquqlarini hurmat qilishi, ularning buzilishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Bojxona kodeksiga ko'ra, mansabdor shaxs nazorat jarayonida aniqlangan qonunbuzarliklar bo'yicha tegishli choralar ko'rishi, hujjatlashtirishi va zaruriyat bo'lsa, huquqbuzar shaxsni javobgarlikka tortish uchun materiallarni

rasmiylashtirishi majburiy. Masalan, kodeksning 197-moddasi bojxona identifikatsiyasi to'g'risida, 201-moddasi esa tovar chiqarib yuborilgandan keyin ham nazorat o'tkazish (post-clearance audit) majburiyati haqida so'z yuritadi. Shu tariqa, bojxona xodimlari nafaqat chegaradagi nazorat bilan cheklanmasdan, balki tovar bozoriga chiqqandan so'ng ham belgilangan muddatlarda tekshirish o'tkazish majburiyatiga ega (bu kontrabanda va bojxona qoidalari buzilishining keyinchalik aniqlanishini ta'minlovchi choradir).

Yuqoridagilarni sarhisob qilar ekanmiz, bojxona nazorati jarayonida bojxona organlari mansabdor shaxslari yetarli keng huquqlarga ega, bir vaqtning o'zida katta mas'uliyat yuklatilgan subyektlardir. Ular nazorat funksiyasini amalga oshirar ekan, qonunning qat'iy doirasida harakat qilishi, fuqarolar manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim. O'zbekiston bojxona organlarining so'nggi yillardagi islohotlari ham aynan xodimlarning malakasini oshirish, ular faoliyatining shaffofligini ta'minlashga qaratilgan. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, bojxona tartib-taomillarini keskin soddalashtirish, postlarni zamonaviylashtirish, "yagona darcha" tamoyilini joriy etish orqali bojxonachilar faoliyati sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda(11). Bu o'zgarishlar xodimlarning xizmat vazifalarini qonuniy va xolis bajarishiga, fuqarolar bilan munosabatlarda odob-axloq normalariga rioya etishiga talabni kuchaytiradi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Suyunov A., To'raev N. Bojxona ma'muriyatchiligi nazariyasi va amaliyoti (o'quv qo'llanma). – Toshkent: TDIU, 2022. – B.14.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi Qonuni. (yangi tahriri). Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2018-y., 03/18/502/2068-son; 23.05.2019-y., 03/19/540/3167-son, 05.09.2019-y., 03/19/563/3685-son
3. Suyunov A., To'raev N. Bojxona ma'muriyatchiligi nazariyasi va amaliyoti (o'quv qo'llanma). – Toshkent: TDIU, 2022. – B.14.
4. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 3(I)-son, 31-modda;
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023 yil 20 fevraldagi 2-son "Bojxona qonunchiligini buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" qarori. [lex.uz/ru/docs/-6404212](https://lex.uz/ru/docs/-6404212)
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi to'g'risidagi NIZOM. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.04.2025-y., 07/25/122/0290-son; 23.12.2025-y., 06/25/250/1197-son
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi to'g'risidagi NIZOM. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.04.2025-y., 07/25/122/0290-son; 23.12.2025-y., 06/25/250/1197-son
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi QARORI. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.04.2025-y., 07/25/122/0290-son; 23.12.2025-y., 06/25/250/1197-son
9. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 3(I)-son, 31-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda;
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi to'g'risidagi NIZOM. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.04.2025-y., 07/25/122/0290-son; 23.12.2025-y., 06/25/250/1197-son
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi — Xalq so'zi gazetasi. <https://xs.uz/uz>

# LEGALSCIENCES.UZ

*2-jild 1-son 2026-yil*

YURIDIK FANLARNING DOLZARB MASALALARI

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

TOPICAL ISSUES OF LEGAL SCIENCES

**“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”

mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog’lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).